

KORRUPSIYANI SOLIQ MEXANIZIMI ORQALI KAMAYTIRISH

Musayeva Komola Yorqin qizi

Bank-Moliya Akademiyasi “Soliq va soliqqa tortish” yo’nalish magistiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashib borayotgan har bir mamlakat muammolaridan biri bo’lgan korrupsiya haqida hamda uni soliq mexanizmlari orqali qisqartirish haqida bayon etilgan. O’zbekiston Respublikasi prezidenti farmonlari, belgilangan chora tadbirlar, olib borilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: korrupsiya, soliq mexanizimi, soliq nazorati, xalqaro tajriba almashinuvi, raqamli soliq tizimi, shaffoflik, xufyona iqtisodiyot, deklaratsiya, soliq auditi, raqobatni oshirish, xodimlarni rag’batlantirish, jazo choralari.

Аннотация: В данной статье рассматривается коррупция, которая является одной из проблем, с которыми сталкивается каждая страна в условиях глобализации, и как сократить её с помощью налоговых механизмов. Освещаются указы президента Республики Узбекистан, принятые меры и проводимая работа.

Ключевые слова: коррупция, налоговый механизм, налоговый контроль, международный обмен опытом, цифровая налоговая система, прозрачность, теневая экономика, декларация, налоговый аудит, увеличение конкуренции, **мотивирование сотрудников**, меры наказания

Annotation: This article discusses corruption, which is one of the problems faced by every country in an increasingly globalized world, and how to reduce it through tax mechanisms. It highlights the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, the measures taken, and the ongoing efforts.

Keywords: corruption, tax mechanism, tax control, international experience exchange, digital tax system, transparency, shadow economy, declaration, tax audit, increasing competition, employee motivation, punitive measures.

Kirish.

Dunyoning barcha mamlakatlarida albatta korrupsiyaga duch kelish mumkin. Xususan respublikamizda ham korrupsiya muammosi yo’q emas. Korrupsiya mamlakatning har bir sohasiga o’zining ta’sirini o’tkazadi. Uni bartaraf etish uchun har mamlakatda ko’plab chora-tadbirlar olib boriladi. Xususan O’zbekistonda ham. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o’zining turli ko’rinishlari bilan taraqqiyotimizga g’ov bo’lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo’lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog’i

rivojlanmaydi”deya takidlagan. 2023 yilda o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotga ko‘ra, O‘zbekiston ushbu reytingga kiritilgan 180 davlat orasida Mo‘g‘uliston bilan ayni birga – 121-o‘rinni egallagan.

Bu o‘tgan yilga (126-o‘rin) qaraganda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash biroz yaxshilanganini ko‘rsatadi. Indeks natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 100 ball dan 33 ball to‘plagan. Ro‘yxat bo‘yicha korrupsiyadan holi eng sog‘lom davlatlar – Daniya, Finlyandiya va Yangi Zelandiya bo‘lib qolmoqda. Suriya, Venesuela va Somali esa mos ravishda 177- va 180-o‘rinlarni qayd etib, eng so‘nggi o‘rinda joylashgan Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari Qozog‘iston 39 ball bilan 93, Qirg‘iziston 26 ball bilan 141, Tojikiston 20 ball bilan 162, Turkmaniston 18 ball bilan 170-o‘rinni egallagan. Qolgan qardosh davlatlar Turkiya 34 ball bilan 115, Ozarbayjon 23 ball to‘plab 154-pog‘onadan joy olgan. Shuningdek, Rossiya 141, Ukraina 104, AQSH 24, Fransiya 20, Xitoy 76, Hindiston 93, Kanada 12, Saudiya Arabistoni 53, Janubiy Koreya 32, Shimoliy Koreya esa 172-qatorda ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 27.11.2023 yildagi PF-200-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va davlat tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora tadbirlari” to‘g‘risida Farmoniga ko‘ra har bir sohaga oid bir qancha muhim chora tadbirlar davlat dasturlari belgilandi. Unga ko‘ra har chorakda Agentlik davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qiladi va ushbu jinoyatlar ko‘rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar belgilash uchun Agentlik xodimlari ishtirokida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnoma kiritib boradi, har yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergan omillarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar Milliy kengash yig‘ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib boriladi. Bundan tashqari

Milliy strategiyani 2024-2025-yillarda amalga oshirishga oid “Yo‘l xaritasi” loyihasida 7 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha ham korrupsiyaga oid quyidagi muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ulardan quyidagilari aynan korrupsiyani qisqartirish uchun mo‘ljallangan:

- Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni ko‘rmagan mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik belgilash;
- Har yili kamida 2 ta sohada korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash, korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqot o‘tkazish;
- Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiya xavflarini ichki va tashqi tahlil qilish tizimini joriy etish;
- Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish;

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 81-moddasiga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o‘rinlarda Agentlik deb yuritiladi) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish vazifasi yuklangan. Mazkur vazifa doirasida Agentlik vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda ularning birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlaydi. Agentlik korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalari va davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;
- mamlakatda korrupsiya holatining tizimli tahlil qilinishini, korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan tarmoqlarni, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning yuzaga kelish sabablari va shartlarini o‘rganishni ta'minlaydi;
- BMTning Korrupsiyaga qarshi konventsiyasi talablariga rioya etilishini ta'minlaydi, mamlakat nufuzini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirgan holda ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi;

2023-yildan boshlab davlat boshqaruvi tizimini o‘zgartirishga qaratilgan ma‘muriy islohotlar doirasida farmon va qarorlar bilan vazifalar belgilanib, amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoqilg‘i-energetika va suv xo‘jaligi tarmoqlarini, shuningdek, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Raqobat qo‘mitasi tizimini “korrupsiyadan xoli zonalar”ga aylantirish to‘g‘risida. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish bilan samarali shug‘ullanmoqda. Milliy kengash yig‘ilishlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning bajarilishi tanqidiy ko‘rib chiqilib, vazirlik va idoralar rahbarlarining hisobotlari tinglanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki respublikamizda yildan yilga korrupsiyaga qarshi kurashishlar ko‘plab davlat dasturlari ishlab chiqarilmoqda va olib borilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Abdulqosimov H.P (2017) o‘zning “Iqtisodiyodga oid atama va tushunchalarining izohli lug‘ati” kitobida korrupsiyaga quyidagicha ta‘rif bergan:mamlakat iqtisodiy resurslariga, davlat mulkini taqsimlash jarayonlarida uning bir qismiga ega bo‘lish maqsadida uyushgan jinoiy guruhning shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug‘-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘yuvchi davlat xizmati amaldorlarini o‘z domiga ilintirib, ulardan foydalanishi va

ular bilan birikib, qo‘shilib ketishidir. Korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning ko‘rinishidir.

Jilina I.Yu(1998) Umuman olganda, korrupsiya – bu o‘z xizmat lavozimidan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanishdir. U yashirin iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan, korrupsiyaning iqtisodiy tahlili faqatgina kapitalistik dunyoda emas, balki sobiq ittifoq hududida ham keng rivoj topgan.

N. Makiavelli (1469) korrupsiyaga qiziqarli ta’rif bergan: shaxsiy manfaatlar yo‘lida jamoa imkoniyatlaridan foydalanish. Korrupsiya – bu faqatgina poraxo‘rlik emas, uning ko‘lami ancha keng. Bu tushuncha o‘zida ham poraxo‘rlikni (kasbiy burchini bajarmaslik uchun mukofot berish), ham nepotizmni, ham shaxsiy maqsadlarda jamoa mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirishni mujassamlashtiradi. Ko‘pincha korrupsiya deganda hukumat byurokratlari tomonidan shaxsan boyib ketish uchun fuqarolardan pora, noqonuniy pul daromadlari olish tushuniladi. Kengroq ma’noda olganda korrupsion munosabatlarning ishtirokchilari bo‘lib faqatgina davlat amaldorlari emas, balki firma menejerlari bo‘lishlari mumkin; porani faqatgina pul bilan emas, balki boshqa shakllarda berish mumkin; korrupsion munosabatlarning tashabbuskorlari sifatida davlat amaldorlari emas, balki tadbirkorlar namoyon bo‘ladi.

Iqtisodchi Berdhenning fikriga ko‘ra, makroiqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichiga eng katta salbiy to‘lqinni olib kiruvchi omil aynan korrupsiya hisoblanadi. Uning ko‘rinishlari turlicha bo‘lishi mumkin: poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik, nepotizm (shaxsiy aloqalar asosida “o‘z qanoti ostiga olish”) va h.k.

Kochergina T.E (2007) fikriga ko‘ra poraxo‘rlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- korxonalar raqobatchilarini yo‘ldan olib tashlash, ularni bozordan, faoliyat sohasidan surib chiqarish;
- davlat xizmatlariga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga erishish, bu yo‘lda mansabdor shaxslar tazyiqi, qarshiligini yengish;
- soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirishga intilish;
- tartibga solinuvchi narxni oshirish uchun ruxsat olish;
- o‘z xodimlari, o‘zining va oilasining, biznesining xavfsizligini ta’minlash maqsadida pora berishga majbur bo‘lish deb ta’riflagan.

Ovsyannikova I.P (2015) Korrupsiyaning “pastdan yuqoriga”, ya’ni boshliq barcha ayblovlarni quyi pog‘ona amaldorlarga to‘nkash imkoniyatiga ega bo‘ladigan tizimi bilan birga “yuqoridan pastga” tizimi ham mavjud bo‘lgan. Bu tizimda boshliq porani bevosita o‘zi olib, uni o‘zining qo‘l ostidagi xodimlari bilan bo‘lishgan. Bunday tizim Janubiy Koreyada mavjud bo‘lgan.

Tahlil va natijalar

Xufyona iqtisodiyotning namoyon bo‘lish shakllaridan biri bo‘lgan korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda salbiy ta’sir etadi. Shu boisdan korrupsiyaga qarshi

kurash va uning oldini olish masalalari barcha mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “To‘rtinchidan, afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi. Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko‘plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko‘rsatib turibdi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”, -deb jamiyat oldiga muhim vazifani belgilab berdi

[“Transparency International”](#) korrupsiyaga qarshi kurash tashkilotining “Korrupsiyani aniqlash” indeksida dunyo mamlakatlaridagi korrupsiya darajasi e‘lon qilindi. 2023 yilda o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotga ko‘ra, O‘zbekiston ushbu reytingga kiritilgan 180 davlat orasida Mo‘g‘uliston bilan ayni birga – 121-o‘rinni egallagan. Bu o‘tgan yilga ([126-o‘rin](#)) qaraganda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash biroz yaxshilanganini ko‘rsatadi.

Indeks natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 100 balldan 33 ball to‘plagan. Ro‘yxat bo‘yicha korrupsiyadan holi eng sog‘lom davlatlar – Daniya, Finlyandiya va Yangi Zelandiya bo‘lib qolmoqda. Suriya, Venesuela va Somali esa mos ravishda 177- va 180-o‘rinlarni qayd etib, eng so‘nggi o‘rinda joylashgan.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari Qozog‘iston 39 ochko bilan 93, Qirg‘iziston 26 ochko bilan 141, Tojikiston 20 ochko bilan 162, Turkmaniston 18 ochko bilan 170-o‘rinni egallagan. Qolgan qardosh davlatlar Turkiya 34 ball bilan 115, Ozarbayjon 23 ball to‘plab 154-pog‘onadan joy olgan. Quyida keltirilgan 1-chizma orqali korrupsiya bilan bog‘liq muammolar yoritilgan:

1-chizma

Korrupsiya bilan bog‘liq asosiy muammolar¹

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

1. Iqtisodiy Ta'sirlar: Korrupsiya iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi, investitsiya muhitini yomonlashtirishi va resurslarning nohaq taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Bu, o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamoat xizmatlarining sifatini pasaytiradi.

2. Siyosiy Muammolar: Korrupsiya siyosiy barqarorlikni tahdid qilishi, davlat idoralarning ishonchligini kamaytirishi va demokratik jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holat aholining hukumatga nisbatan ishonchini yo'qotishiga olib keladi.

3. Huquq-Tartibot Muammolari: Korrupsiya huquq-tartibot organlarining faoliyatiga zarar yetkazishi, jinoyatchilik darajasini oshirishi va adolatning ta'minlanishini qiyinlashtirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy tartib va xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy Ta'sirlar: Korrupsiya ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va jamoatchilikda norozilik tuyg'usini oshirishi mumkin. Shuningdek, u ta'lim va tibbiyot sohalarida muammolarni kuchaytiradi va ushbu xizmatlarning sifatini pasaytiradi.

5. Yoshlar va Ta'lim: Korrupsiya ta'lim tizimida yomon natijalarga olib kelishi, yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini cheklashi va ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda nafaqat mamlakatimizda balkim dunyoning barcha mamlakatlarida korrupsiyaning oqibatlari yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasida korrupsiya muammosi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi va bu iqtisodiy, siyosiy, va ijtimoiy sohalarida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston hukumati korrupsiyani kamaytirish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun bir qator choralar ko'rmoqda, masalan, qonunchilikni takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus organlar tashkil etish, va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Shuningdek, jamoatchilikni xabardor qilish va ma'lumotlarni oshkor qilish orqali ham korrupsiyaga qarshi kurashish kuchaytirilmoqda.

Xulosa

Soliq mexanizmi orqali korrupsiyani kamaytirish uchun quyidagi choralar ko'rilishi mumkin:

- Raqamli soliq tizimi: Soliq jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish inson omilini kamaytiradi, bu esa poraxo'rlikni cheklaydi.

- Soliq nazoratini kuchaytirish: Soliq nazorati va tekshiruvlarini oshirish, shuningdek, soliq to'lovchilarni monitoring qilish orqali korrupsiyani aniqlash imkoniyatini oshiradi.

- Shaffoflikni oshirish: Soliq tizimida shaffoflikni ta'minlash, barcha soliq to'lovlari va tushumlarini jamoatchilikka ochiq qilish orqali korrupsiya xavfini kamaytiradi.

- Xodimlarni rag'batlantirish: Soliq idoralarida ishlovchi xodimlarni halollikka va adolatga rag'batlantirish, ularni korrupsiya qarshi kurashga jalb qilish.

- Jazo choralarini kuchaytirish: Korrupsiya bilan shug'ullanganlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish, qattiq qonuniy chora ko'rish orqali boshqa xodimlarni korrupsiyadan cheklash.

- Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik: Korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, korrupsion holatlar haqida xabar berish tizimini yaratish.

- Xalqaro tajriba almashinuvi: Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajribadan foydalanish, samarali metodlarni o'rganish va ulardan foydalanish.

Ushbu choralar soliq tizimining samaradorligini oshirish va korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 27.11.2023 yildagi PF-200-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va davlat tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora tadbirlari" to'g'risida Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni
3. Milliy strategiyani 2024-2025-yillarda amalga oshirishga oid "Yo'l xaritasi" loyihasi
4. Abdulqosimov H.P., Muminov N.G. "Xufyona Iqtisodiyot". O'quv qo'llanma. Toshkent.: Yanginashr, -2020y
5. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. -Т.: "АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ", 2017.
6. Теневая экономика: учеб. пособие / И.П. Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов н/Д, 2015.
7. <https://www.transparency.org/en/cpi/2023>
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_korrupsiya
9. <https://www.gazeta.uz/ru/2023/02/02/corruption-perceptions-index/>

10. <https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaning-oldini-olish-va-unga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-amalga-oshirish>

